


## X. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirish, ularni erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit va muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar davomida 2026-yil 1-yanvar holatiga roʻyxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 33 295 tani tashkil qildi. (2025-yil 1-yanvarga nisbatan 12,0 % ga kamaygan).

### Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining 2026- yil 1- yanvar holatiga iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha taqsimlanishi



■ Sanoat ■ Savdo ■ Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi ■ Qurilish ■ Boshqalar


Eng koʻp kichik biznes subyektlari savdo tarmogʻida (jami tashkil etilgan subyektlarning 40,2 %), sanoat sohasida (14,5 %), qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida (13,9 %) va qurilishda (4,3 %) tashkil etilgan.

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar**

	2024- yil yanvar-dekabr	2025- yil yanvar- dekabr
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>3 929</b>	<b>4 278</b>
Namangan shahar	1 204	1 308
Mingbuloq	278	343
Kosonsoy	276	278
Namangan	159	182
Norin	211	274
Pop	305	258
To'raqo'rg'on	192	234
Uychi	189	233
Uchqo'rg'on	304	350
Chortoq	245	296
Chust	297	273
Yangiqo'rg'on	269	249

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Namangan shahrida – 1 308 ta, Uchqo'rg'on tumanida – 350 ta Mingbuloq tumanida – 343 ta, Chortoq tumanida – 296 ta, Kosonsoy tumanida – 278 ta, Norin, tumanida – 274 ta, Chust tumani – 273 ta, Pop tumani – 258 ta, Yangiqo'rg'on, tumanida – 249 ta, To'raqo'rg'on, tumani – 234 ta, bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. Uychi tumanida – 233 ta Eng past ko'rsatkich Namangan tumanida – 182 tani tashkil etdi.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da




2025- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Namangan shahrida – 30,6 %, Uchqurg'on tumanida – 8,2 %, Mingbuloq tumanida – 8,0 % Chortoq tumanida - 6,9 %, Kosonsoy tumanida -6,5 %, Chust tumanida – 6,4 % Norin tumanida – 6,4 %, Pop tumanida -6,0 %, Yangiqo'rg'on tumanida 5,8 %, Uychi tumanida – 5,4 %, va tashkil etdi.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 73,6 % (2024- yil yanvar- dekabr oylarida 73,9 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan 390,3 mln AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 54,0 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 753,7 mln AQSH dollari (umumiy import hajmining 71,6 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi

(2025- yil yanvar-dekabr oylari holatiga, % da)



### Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi (2025- yil yanvar-dekabr)

Iqtisodiy faoliyat turlari	Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi, mlrd soʻm	Jami hajmga nisbatan ulushi, % da
Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi	38 787,9	106,5
Sanoat	22 154,4	108,6
Qurilish	14 237,3	114,6
Chakana savdo	26 901,7	109,0
Yuk tashish, mln tonna	33,5	103,8
Yoʻlovchi tashish, mln kishi	515,3	102,7